



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ maktabgacha va
_____ maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti
_____ guruh tarbiyachisi

_____ ning
takorarlantirilgan "Ilk qadam"
davlat o'qitish ushbu uchinchinchi nashri

"Tozalik va sog'lom hayot"
mavzusida tashkil etilgan

FAOLIYAT
ISHLANMASI

(Yanvar oyining 4-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

**91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**


**O'rta guruhlariga yanvar oyi 4-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.**



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Rivojlantiruvchi: bolalarni tozalikka o‘rgatish;

Asosiy: tarbiyalanuvchilarga tozalikning salomatlikka foydali ekanligini
tushuntirish.

Reaksiyonlar: AKT, gijiyena
tishnisi, tish chotkasi,
un.

Ta'limiyat va Tiboriy

Tarbiyachi: Alon, kum, qadrlı tarbiya, chi, ingi ta'li- miy ni ta'yormisizlar?

Bolalar: - Ha, tayyormiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar, hammasini qo‘llarimizga qaraymiz, qo‘llarimiz toza ekanmi?

Bolalar: - Ha, toza ekan.

Tarbiyachi: - Tirnoqlarimiz olinganmi?

Bolalar: - Tirnoqlarimiz olinga n.

Tarbiyachi: - Bolalar, men qo'llaringizni yuvdingizmi, deb bejiz so'ramadim. Qo'llarimiz bilan ovqat yeymiz, o'yinchoqlar o'ynaymiz, ko'chada yuramiz. Ana shu vaqtda ko'zga ko'rinmas mikroblar qo'lga yopishib oladi. Hozir diqqatingizni monitorga qaratib.

(Monitorda mikroblar haqidagi lavha ko'rsatiladi.)



Tarbiyachi: - Agar qo'llarimizni yuvib yursak, bu salomatligimiz uchun ham, o'zimiz uchun ham yaxshi. Ayniqsa, ovqat yeyishdan oldin, hojathonadan chiqqanda, albatta, qo'llar yuvilishi kerak. Iflos qo'llardagi mikroblar og'zimiz orqali ichimizga tushib, kasal qilishi mumkin. Bolajonlar, qo'lni yuvgandan keyin nima qilamiz?

Bolalar: - Qo'lni yuvgandan keyin sochiqqa artamiz.

Tarbiyachi: - Sochiqni ham har uch-to'rt kunda yuvib turish tavsiya etiladi. Bolajonlar, endi diqqatingizni yana monitorga qarating. Unda nima tasvirlangan ekan?

Bolalar: Tish pastasi surati bor ekan.

Tarbiyachi: Tish pastasi bilan tishlarimizni yuvamiz. Tish pastasini nima uchun suramiz? Qani, kim aytadi?

Bolalar: 1. Tish cho'tkasi tish cho'tkasi yordamida tishlarimizga suramiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar, kuniga ikki marta tishlarimizni yuvishimiz zarur. Aks holda, tishlarimiz ovqat o'tinglari yig'ilib qoladi, vaqtda yuvilmasa, og'izdan badbo'y hid chiqadi. Siz ham yomon hid chiqadigan o'rtog'ingiz bilan gaplashgingiz kerakmi?



Bolalar: - Yo‘q, gaplashgimiz kelmaydi.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, kim biladi, qo‘llarimizni nima yordamida yuvamiz?

2-bola: - Qollarimizni sovun bilan yuvamiz.

Tarbiyachi: - Juda to‘g‘ri, sovun aynan mikroblarni kamaytiradi. Bolajonlar, bizning ta‘limiy faoliyatimizga shifokor ham mehmonga kelibdilar. Keling, hozir ularni kutib olamiz.

Bolalar: - Assalomu alaykum, xush kelibsiz!

Shifokor: - Valaykum assalom, bolajonlar. Bugun men sizlarga shaxsiy gigiyena haqida nashrlarimni aytish uchun keldim.

Bolajonlar, biz doim yuvinib, o‘zimizga qarab, oyoq kiyimlarimizni ham yuvishimiz kerak. Yuvingach, o‘zingizning sochig‘ingizga artining, tish yuvayotganda o‘zingizning tish cho‘tkangizdan foydalaning. Chunki boshqa yodda qolgan yoki tish cho‘tkasi ham mikrob tashuvchi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun doim shaxsiy gigiyenaga amal qiling va boshqalarning shaxsiy buyuklaridan foydalanmang.



Bolalar: - Ortog‘imizning oyoq kiyimini kiysak bo‘ladimi?

Shifokor: - Yo‘q, o‘rtog‘ingizning oyoq kiyimini kiymang, hamma o‘zining poyafzalida yurgani yaxshi.

Tarbiyachi: - Shifokor opa, hozir bolajonlarga ertak aytib bermoqchiman. Sizlarga o'xshagan bir bola bor ekan. U oyisi va dadasiga, shirinlik olib bermasanglar.

bog'chaga bormayman, deb xarxasha qilarkan. Oyisa esa o'g'lim yig'lamasin, deb ko'chada usti ochiq, changda turgan xo'rozqandlardan olib berarkan. Yana bu bola do'stlari konfet yeyayotganini ko'rsa, men ham bir yalay, deb qo'ymas ekan. Ortoqlariyu xafa bo'lmasligi uchun o'zlari yeyayotgan konfetdan yalatisharkan. Bunda men odatlar bolani kasal qilib qo'yibdi. Isitmasi ko'tarilibdi, qayt qilibdi, o'zi ham yomon his qila boshlabdi. Keyin uyga shifokorni chaqirishibdi. Shifokor yozib beribdi. Bola bir hafta uyda dam olibdi. Uning uchun bir kun o'zini o'zilibdi, qaniydi hozir hech qayernim og'rimasa-yu, do'stlarim bilan yalalayman, deb o'ylabdi. Tuzalganidan keyin qaytib birovning konfetini yalamayman, deb xo'rozqandlarni olmaydigan bo'libdi.

Sizlar, bu bo'limda qanday staysislar?

Bolalar: - Yo‘q, biz o‘qimaymiz.

Tarbiyachi: - Unda, juda muhim afzal topa, bolajonlarga sog‘lom bo‘lishlari uchun yana qanday maslahat berib olgan?

Shifokor: - Har kuni ertalab uygʻnib, oʻz boshqarbiya bilan shugʻullaning, tirnoqlaringizni oʻstirmang. Tishlaringizni har kuni mahol yuving. Qoʻlingizni sovunlab yuvish esingizdan chiqmasin. Qoʻlingizni kiyimlarini kiymang, ularning sochiqlaridan foydalanmang.

Tarbiyachi: - Shifokor opa, tavsiyalaringiz uchun rahmat. (Shifokor xonani tark etadi.)

Tarbiyachi: - Bolalar, endi sizlar bilan badantarbiy da ishtirok etib o'tkazamiz. Hammamiz doira hosil qilib turib olamiz. Men sizlarga qarab o'tayotgan to'pni ilgan bola ikkinchi bolaga otayotganda toza yurish haqida gapirib berilgan, tishingni yuv, qo'lingni yuv, sochingni tara, ozoda yur kabi.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimizdagi faol ishtirokingiz uchun katta rahmat. Hozir faoliyat yakunida sizlarga Qambar otaning “Sarishta qizi” asarini o‘qib beraman.

Sarishta qiz

Qambar ota

Mehnatsevar sarishta qiz, Ozoda-yu farishta qiz. Yulduz misol charaqlaydi, Uy chinniday yaraqlaydi. A'lo o'qib maktabida, Hamma xursand odobidan.

Oyisiga yordamchi qiz, Otasiga ilhomchi qiz. Tillaridan tomar asal, So'zlarini deysiz g'azal. Kelib dildan havasingiz, Toshib mehr ixlosingiz.

So'roqlaysiz: "Kimning qizi?" Bunday qizlar elning qizi.



Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Predmetni belgisi va o'lchami bo'yicha top

Maqsad: bolalar predmetlarning belgisi o'lchamiga ko'ra farqlashni o'rganadilar. Predmetlarni bir-biriga nisbatan tartib bilan joylashtirishni biladilar.

Keraqli jihoz va materiallar: turli xil o'lchamdagi va shaklli taxtacha, mashina, uchburchak, aylana, to'g'ri to'rtburchak, karton qog'ozdan shakllar.

Faoliyatning borishi:

1. Har xil o'lchamdagi geometrik shakllarni ko'rib chiqish.
2. Geometrik shakllarni rangiga qarab saralash.
3. Turli o'lchamdagi uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va aylana shakllarini tarqatish. (Har bir shakl 9 tadan). Shakllarni bir-birining ustiga qo'yish orqali bir xil o'lchamdagi shakllarni topish.

4. Amalganilgan ishni muhokama qilish, hulosalash.

Qo'shimcha mustahkamlash yuzasidan savol, qanday qilib bir xil uzunlikdagi shakllarni topish mumkin?

E'tiborga olinadigan narsa: tanish o'lchamdagi predmetlarni topish va farqlash.



Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Shifoxona»

Maqsad: bolalar syujetli o'yinlarga ijodiy yondashadilar, o'yin faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan sharoit, predmetlar yoki ularning o'rnini bosuvchi predmetlarni topadilar, o'yinda rollarni almashib o'ynay oladilar.

Keraqli jihoz va materiallar: tibbiyotjihozlari, oq xalat, shifokor va hamshira uchun qalpoqlar, tibbiyot kartasi.

Faoliyatning borishi:

1. Bog'chadagi tibbiyot xonasiga sayohat.
2. Shifokor va hamshira kasbi haqida suhbat o'tkazish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Syujetlirolli o'yin ijrosi.
5. Yakun. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: «Bu yerda nima ortiqcha?» ta'limiy o'yin.

E'tiborga molik jihati: bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, jamoa bo'lib o'ynayotganda bolalar o'rtasida do'stona munosabat qurishga ko'maklashish.

Til va nutq markazi

Tasviriy hikoya «Qishki kiyimlar»

Maqsad: kishki kiyimlarni tasvirlab beradilar, gap tuzishda so'zlarning bir-birlariga nisbatan ahamiyat beradilar, kiyimlarni mavsumga qarab ajrata oladilar.

Keraqli jihoz va materiallar: qo'g'irchoq va uning kiyimlari, suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Qo'g'irchoqning qanday kiyim borligini ko'rib chiqish.
2. Mavzu bo'yicha suhbat.
3. «Qo'g'irchoqni sayrga o'tkazamiz» ta'limiy o'yin.
4. So'z o'yini: etik - etika, paltacha; palto — paltocha va h.z.
5. Tasviriy hikoyalar tuzish.
6. Tuzgan hikoyalarni do'stlariga o'qitish.

Qo'shimcha: ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yin o'yinlash.

E'tiborga molik jihati: tasvirlovchi

Hikoya tuzishda lug'at boyligi.

Fan va tabiat

Akvariumdagi baliqlarni kuzatish

Maqsad: bolalar baliqlarning tuzilishi va tashqi ko'rinishi haqida bilim olish, akvariumdagi baliqlarni ovqatlantirish va parvarishlash, baliqlar tasvirlashga bo'ladilar.

Keraqli jihoz va materiallar: akvariumdagi baliqlar, har xil turdagi baliqlar rasmlari.

Faoliyatni borishi:

1. A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq» ertagini tinglash
2. Bolalar bilan suhbat.
3. Baliqlarni kuzatish. Akvariumdagi Baliqlarni qanday parvarishlash lozim?
4. Kuzatuv natijalarini kuzatuv varag'iga qayd etish.

5. «Rasmdagi 10 ta farqni top» ta'limiy o'yini.

6. Hulosalar.

Rag'batlatirish.

Qo'shimcha: har xil tur va kattalikdagi baliqlar bilan tanishtirish. Mavzuga oid topishmoqlarni aytilish va ularni topish. Hikoya tuzish.

E'tiborga molik jixati: baliqlarni parvarishlash, jonli tabiatni sevish.

San'at markazi

Rasm: «O'rmondagi qishki daraxt»

Maqsad: bolalar rasmda predmentning obrazini tasvirlay oladilar, chiroyli kompozitsiyalarni topadilar, rasmni rangli qalamlar orqali tasvirlaydilar.

Keraqli jihoz va materiallar: namuna, rangli qalam, bo'r, oq va rangli qog'ozlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani ko'rib chiqish.
2. Bajariladigan ishlarni rejalashtirish.
3. Keraqli jihozlarni tanlash.
4. Ijodiy faoliyatni o'tkazish.

Qo'shimcha: bolalar tomonidan mos bo'lgan daraxtlar rasmini chizish.

E'tiborga molik jixati: bolalar tomonidan qog'ozda katta daraxt rasmlarini joylashtirish va chizishga o'rgatish, qog'ozda daraxt rasmlarini olish.

